

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8  
2023



Tosh o'rmoni  
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# **Yashil** IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

*Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.*

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

**Tahrir hay'ati:**

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'lqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi .....	6
<b>Muxiddin Kalonov</b> , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
<b>Jumayev Olimjon Sadulloyevich</b> , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
<b>Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
<b>Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li</b> , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi .....	34
<b>Mamaraximov Bekzod Erkinovich</b> , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
<b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
<b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
<b>Berdiyev Anvar Abduraxmonovich</b> , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati .....	56
<b>G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish .....	61
<b>Olimjanova Nigora Alisherovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli.....	65
<b>Saydirasulov Laziz Alimovich</b> , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar .....	71
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , kafedra dotsenti; <b>Axmedov Akbarali Sultonmurodovich</b> , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций .....	78
<b>Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич</b> , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
<b>Махмудов Носир Махмудович</b> , д. э. н., профессор; <b>Фозилова Фирангиза Комиловна</b> , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
<b>Sherali Xolliyev</b> , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnı rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni .....	94
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
<b>Xakimov Ziyodulla Axmadovich</b> , dotsent; <b>Axmadova Rayxona Jasurbek qizi</b> , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
<b>Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi</b> , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
<b>Abdiyeva Flora Botir qizi</b> , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar .....	114
<b>Abdullahayev Farxod Ozodovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari .....	119
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country .....	125
<b>Sanakulova Barnogul Rizakulovna</b> , Doctor of Economic Science, Professor;	
<b>Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli</b> , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
<b>Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi</b>	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution .....	133
<b>Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li</b>	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili .....	138
<b>Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li</b> , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida .....	151
<b>Sharifi Ahmad Sakhrob</b> , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны .....	156
<b>Суюнова Фотима Баходир кизи</b> , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози .....	161
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
<b>G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi</b> , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане .....	174
<b>Жуманиязова Феруза</b> , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
<b>Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna</b> , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
<b>Nilufar Sharipova</b> , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar .....	197
<b>Nurillayev Jamoliddin Yarashevich</b> , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
<b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li</b> , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi .....	208
<b>Razzaqov Jasur Hamraboievich</b> , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
<b>Рузиева Дилноза Абдусаматовна</b> , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari .....	216
<b>Saydullayev Shaxzod Sherzodovich</b> , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения .....	222
<b>Хажиев Бахтиёр Душабоевич</b> , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari .....	227
<b>Adizov Sardor Rashidovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish .....	231
<b>Mamatov Sardor Axmatjonovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
<b>Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li</b> , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана .....	243
<b>Мирзахалилова Азизахон Алишеровна</b> , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish .....	249
<b>Sultanov Maxmud Axmedovich</b> , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni .....	254
<b>Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li</b> , PhD; <b>Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики .....	259
<b>Отакулов Махамаджон Каримович</b> , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	264
<b>Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li</b> , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
<b>Eshmatov Sanjar Ashirqulovich</b> , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
<b>Gadoyev So'hrob Jumakulovich</b> , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
<b>Алимова София Розумбаевна</b> , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'naliшlarini takomillashtirish.....	282
<b>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</b> , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
<b>N. N. Ismatullayeva</b> , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
<b>Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna</b> , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
<b>Жураева Нодира Фузулий кизи</b> , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari .....	310
<b>G. Abduvosidova</b> , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
<b>Nazarov Shohbek Isroilovich</b> , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
<b>Mamatov Axmetjon Atajanovich</b> , professor; <b>Allaberganova Zakir Gayibovich</b> , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li</b> , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli .....	330
<b>Norov Akbar Ruzimamatovich</b>	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi .....	335
<b>Xoliqov Ulug'bek Rustamovich</b> , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba .....	341
<b>N.N.Ro'ziyev</b>	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
<b>Astanov Sherzod Rustamovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
<b>Nosirova Charos</b>	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
<b>Irgasheva Gulbahor Sodiqovna</b> , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari .....	369
<b>Abduxamidova Gulxayo</b> , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili .....	374
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala.....	380
<b>Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi</b> , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami .....	386
<b>Xайдарова Малика Шакирджановна</b> , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili .....	396
<b>S.T.Toshaliyeva</b> , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
<b>Ruzibayev Jahongir Nodirovich</b> , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
<b>Nabiiev Feruz Nurmurodovich</b> , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish .....	412
<b>Imomova Nodira Shavkatovna</b> tadqiqotchi, <b>Sultonov Mansur Qilichevich</b> PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
<b>Xashimova Naima Abitovna</b> , i.f.n., professor; <b>Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li</b> assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
<b>M.A.Saparova</b> , talaba	



# O'ZBEKISTON FOND BOZORIDA INVESTORLARNING PUL MABLAG'LARINI JALB QILISH MEXANIZMLARIDAN FOYDALANISH

**Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li**

Toshkent moliya instituti "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar"  
kafedrasi dotsenti, PhD



**Annotatsiya:** Maqolada fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish mohiyati va usullari atroficha tahlil etilgan. Shuningdek, fond bozorini rivojlantirishda moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati, aksiya va obligatsiyalarning savdo jarayonlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** fond bozori, investor, aksiya, obligatsiya, qimmatli qog'ozlar, investitsiya, birlamchi va ikkilamchi ommaviy taklif, opsiyon, kapital bozori, risk qiymati, investitsion portfel.

**Аннотация:** В статье подробно анализируются сущность и методы использования механизмов привлечения средств инвесторов на фондовом рынке. Также описано значение финансовых технологий в развитии фондового рынка, торговых процессов акциями и облигациями.

**Ключевые слова:** фондовый рынок, инвестор, акция, облигация, ценные бумаги, инвестиции, первичное и вторичное публичное размещение акций, опцион, рынок капитала, стоимость риска, инвестиционный портфель.

**Abstract:** The article analyzes in detail the essence and methods of using the mechanisms for attracting investors' funds in the stock market. The importance of financial technologies in the development of the stock market, trading processes in stocks and bonds is also described.

**Key words:** stock market, investor, share, bond, securities, investment, initial and secondary public offering, option, capital market, cost of risk, investment portfolio.

## KIRISH

Xalqaro amaliyotdan ma'lumki, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda tashqi va ichki investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, dunyo bo'yicha to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar qiymati 2022-yilda 1,478 trln. AQSH dollarini tashkil etib, shundan 597 mlrd. AQSH dollari rivojlangan, 881 mlrd. AQSH dollari rivojalayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelgan<sup>1</sup>. Shunigdek, Jahan bankining ma'lumotlariga ko'ra, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan olganda, 2021-yilda 2,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 1,9 foizli ko'rsatkichni ko'rsatgan<sup>2</sup>. Ushbu jihatlarni inobatga olganda, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish orqali sohalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasida fond bozori iqtisodiyotiga investitsiyalar olib kiruvchi va bo'sh pul mablag'larni sohalar bo'yicha taqsimlovchi eng asosiy bog'in hisoblanadi. Fond bozorining kapitallashuvi bo'yicha xalqaro baholovchi tashkilotlar ma'lumotlarida keltirilishicha, AQSHda jami 3649 ta kompaniya va 47,257 trln. AQSH dollari, Xitoya jami 307 ta kompaniya va 6,549 trln. AQSH dollari, Yaponiyada jami 343 ta kompaniya va 4,376 trln. AQSH dollarilik<sup>3</sup> qiymatga ega bo'lgan. Kompaniyalarning bozor qiymatini oshishi makro va mikro omillarga, shuningdek, bevosita fond bozorlarning faoliyat mexanizmining samaradorligi va undagi investorlarning faolligiga bog'liqdir.

Respublikamizda fond bozorini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, unga xorijiy va mahalliy investorlarni keng jalb etish, moliyaviy instrumentlar soni va daromadiligidini oshirish, aksiyadorlik jamiyatlarida minoritar aksiyadorlarni qo'llab quvvatlash, aksiya va obligatsiyalar savdo infratuzilmasini yanada takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida kelgusi 5-yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish

1 UNCTAD, FDI/MNE database (<https://unctad.org/fdistatistics>)

2 [https://data.worldbank.org/indicator/BX.KLT.DINV.WD.GD.ZS?name\\_desc=false](https://data.worldbank.org/indicator/BX.KLT.DINV.WD.GD.ZS?name_desc=false)

3 <https://companiesmarketcap.com/all-countries/>



maqsadida xususiylashtirish dasturi doirasida 1 mingga yaqin korxonani hamda eng yirik 10 ta kompaniya va tijorat banklarining aksiyalarini aholi uchun ochiq hamda shaffo savdoga chiqarish (IPO)<sup>4</sup> kabi vazifalar belgilab olingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sekturni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida" 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son va "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son Farmonlari hamda "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-son, "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 8-noyabrdagi PQ-415-son, "Iqtisodiyotda davlat ishtiropini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 24-martdagi PQ-102-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ishtiropidagi yirik korxonalar aksiyalarini fond birjasida birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirish to'g'risida" 2022-yil 15-avgustdagi 446-son, "Davlat muassasalari va davlat ishtiropidagi korxonalarni qayta tashkil etish va tugatishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yildagi 3-apreldagi 139-son qarorlarining samarali ijrosi orqali fond bozori infratuzilmasini yaxshilashga va investorlarni keng jalb etishga erishish mumkin.

## ADABIYOTLARGA SHARH

Kapital bozori, xususan fond bozori o'zning jozibasi va imkoniyatlari bilan doimo iqtisodchi olimlarni ilmiy tadqiqotlarining obyekti sifatida namoyon bo'ladi. Xorijlik iqtisodchi olimlardan Wenhao Tan, Xiang Li, Jianfeng Zhao, Lin Cao, Haolun Wang<sup>5</sup> fond bozori va aholining oylik ish haqisi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasini, David Y. Aharon, Ahmed S. Baig, Hassan A. Buttler<sup>6</sup> ta'lif tizmini kapital bozoridagi likvidlilik darajasiga, Joseba Martinez, Thomas Philippon, Markus Sihvonenlar<sup>7</sup> valyuta birliklarining moliya bozoridagi savdo jarayonlariga ta'sirini o'zlarining tadqiqotlarida bayon etganlar va ilmiy takliflar ishlab chiqqanlar.

Fond bozori aylanmasiga korporativ boshqaruva va soliq tizimining qay darajada bog'liqligini, xorijiy investitorlarning tashqi kapital bozorida faoliyat doirasini iqtisodchilardan Karen Aparicio, Ryoonhee Kimlar<sup>8</sup> o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida bayon etganlar.

Unumdorlik va garovga qo'yiladigan daromad birgalikda kapitalning ichki bozorida taqsimlanishini Luiz Ricardo Kabbach-de-Castro, Guilherme Kirch, Rafael Mattalar<sup>9</sup> ilmiy tadqiq etganlar. Ularning fikricha moliyaviy jihatdan cheklangan biznes guruhlarida samarali ichki kapital bozori multiplikator ta'siri tufayli yuqori daromad garoviga ega bo'lgan firmalarga marjinal mablag'larni taqsimlashi mumkin: bir dollar ichki mablag'lar investitsiyalarning katta o'sishiga olib keladi.

Yurtimiz iqtisodiyot sohasidagi olimlardan S. Elmirzayev, S. Omonov<sup>10</sup>, N. Sherkuziyevalar<sup>11</sup> dividend siyosatini aksiyalar bozori savdosiga ta'srini o'rgangan bo'lsalar, F. Muxamedov<sup>12</sup> qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarining rivojlanish tendensiyalari tahlili va muammolarini, B. E. Tashmurodova<sup>13</sup>, O. N. Hamdamovlar<sup>14</sup> moliyaviy menejment tizimini fond bozoridagi rolini ilmiy ishlarda bayon etganlar.

Umuman olganda aytishimiz mumkinki, moliya bozorining ajralmas tarkibiy qismilaridan biri bo'lgan fond bozorining milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va modernizatsiya qilishda o'rni beqiyosdir. Bu esa o'z navbatida, iqtisodchi va olimlar tomonidan fond bozorini tadqiq etish masalalariga ko'proq e'tibor qaratish bilan birga mavjud xorijiy tajribalardan unumli foydalanishni taqozo etmoqda.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" Farmoni, 28. 02. 2023-yildagi PF-27-son, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02. 03. 2023-y., 06/23/27/0121-son

5 Wenhao Tan, Xiang Li, Jianfeng Zhao, Lin Cao, Haolun Wang "Internal capital markets and employee wage: Evidence from China" International Review of Financial Analysis, Volume 88, 2023, 102680, ISSN 1057–5219, <https://doi.org/10.1016/j.irfa.2023.102680>.

6 David Y. Aharon, Ahmed S. Baig, Hassan A. Butt "The role of education in capital Markets' liquidity" Journal of International Financial Markets, Institutions and Money, Volume 86, 2023, 101805, ISSN 1042–4431, <https://doi.org/10.1016/j.intfin.2023.101805>.

7 Joseba Martinez, Thomas Philippon, Markus Sihvonen, Does a currency union need a capital market union?, Journal of International Economics, Volume 139, 2022, 103675, ISSN 0022–1996, <https://doi.org/10.1016/j.jinteco.2022.103675>.

8 Karen Aparicio, Ryoonhee Kim, External capital market frictions, corporate governance, and tax avoidance: Evidence from the TED spread, Finance Research Letters, Volume 52, 2023, 103381, ISSN 1544–6123, <https://doi.org/10.1016/j.frl.2022.103381>.

9 Luiz Ricardo Kabbach-de-Castro, Guilherme Kirch, Rafael Matta, Do internal capital markets in business groups mitigate firms' financial constrains?, Journal of Banking & Finance, Volume 143, 2022, 106573, ISSN 0378–4266, <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2022.106573>

10 Elmirzayev S., Omonov S. Dividend policy analysis in developed countries and dividend aristocrats //International Finance and Accounting. – 2020. – Т. 2020. – №. 2. – С. 22.

11 Шеркузиева Н. Дивидендная политика: влияние дивидендных выплат на курс акций и на рыночную стоимость акционерных обществ //Economics and education. – 2022. – Т. 23. – №. 1. – С. 162–167.

12 Muxamedov F. Qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarining rivojlanish tendensiyalari tahlili va muammolari //Ekonomika i innovatsionnye texnologii. – 2020. – №. 1 (2). – С. 14–24.

13 Buvsara T. Financial Management Features In Emerging Economies (In Case Of Uzbekistan) //Voice of Research. – 2014.

14 O. N. Hamdamov Prospects for increasing the importance of financial management in ensuring the financial stability of stock companies //Ekonomika i finansy (Uzbekistan). – 2021. – №. 6. – С. 29–35.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu maqola fond bozorini rivojlantirish, unga mahalliy va xorijiy investorlarni keng jalb etish, aksiyadorlik jamiyatlarini bozor qiymatini oshirish, qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etish bo'yicha yozilgan ishlarni o'qish va tahlil qilish, yangi ilmiy takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan. Bunda Google Scholar, Scopus va Web of Sciences bazasida mavjud mavzu doirasidagi jurnal maqolalari, dissertasiya ishlardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda xalqaro fond bozorlarida aksiyalar, obligatsiyalar, hosilaviy qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy instrumentlar bo'yicha savdolar tashkilashtiriladi. Fond bozori o'zida qimmatli qog'ozlar savdosiga bo'yicha zarururiy infratuzilmaga ega bo'lgan, huquqiy-normativ jihatdan tartibga solinadigan va barcha ishtiroychilarning o'zaro aloqasini ta'minlovchi subyekt sifatida qarashimiz mumkin.

Fond bozori va qimmatli qog'ozlar bozori funksiyalar vazifasi bo'yicha bir xil tushuncha bo'lsada, savdodagi moliyaviy instrumentlar bo'yicha o'zaro farqli jihatga egadir. Fond bozorida emitentlarning, asosan, aksiyadorlik jamiyatlarining ulushiga va qarz toifasiga kiruvchi qimmatli qog'ozlari savdosiga amalga oshirilsa, qimmatli qog'ozlar bozorida davlat qimmatli qo'gozlari, opson, fyuchers, swop, forvard va boshqa turdagagi moliyaviy instrumentlar oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Oldingi tadqiqotlarimizda ta'kidlaganimizdek, "qimmatli qog'ozlar bozorini har tomonlama rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligi bilan chambarchas bo'g'liq hisoblanadi. Ya'nii yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh qolgan moliyaviy resurslarini fond bozori orqali davlatdagagi yirik va investitsiya talab qiluvchi biznes subyektlariga samarali yo'naltirish va ularning nazoratini tashkil etish hozirgi kunning dolzarb mummolaridan"<sup>15</sup>.

O'zbekiston Respublikasida fond bozori o'zining tarixiy shakllanish va taraqqiy etish amaliyotiga ega hisoblanib, hozirgi kunda jadal rivojlanmoqda. Qimmatli qog'ozlarning asosiy turlaridan bo'lgan aksiya va obligatsiyalarning savdo jarayonlari 1994-yilda tashkil etilgan "Toshkent" respublika fond birjasi tomonidan tashkilashtirilib kelinmoqda. "Toshkent" RFB bevosita 100dan ortiq brokerlik tashkilotlari, 115 ga yaqin moliyaviy instrumentlar, zamonaviy listing talablariga ega bo'lgan fond bozori tashkilotchisi hisoblanib, xorijiy va mahalliy investorlarga aksiya va obligatsiya savdolari bo'yicha keng imkoniyatlar yaratib bormoqda. Shuningdek, respublikamizda valyuta birjasi tarkibida bo'lgan davlat qimmatli qog'ozlar bozori ham jadal rivojlanmoqda. Quyida O'zbekiston fond va davlat qimmatli qog'ozlar bozorlari bo'yicha ko'rsatkichlar tahlil etilgan (1-rasm).



1-rasm: Qimmatli qog'ozlar bozoridagi bitimlar hajmi<sup>16</sup>


15 Karimov A. Traditions and prospect of development of the securities market activity //International Finance and Accounting. – 2019. – T. 2019. – №. 4. – S. 1.

16 <https://uzse.uz/analytics> va <https://uzrvb.uz/uzl/ozrvbning-2021-yildagi-yillik-hisoboti> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi




1-rasm ma'lumotlarida 2018–2022-yillarda respublikamizdagi fond va davlat qimmatli qog'ozlar bozorlarida o'tkazilgan savdolar bo'yicha natijalar va uning yalpi ichki mahsulotga nisbati ko'rsatib o'tilgan. Ma'lumotlarda a'yon bo'lmoqdaki, 2018-yilda fond bozori va davlat qimmatli qog'ozlar bozori savdolar qiymati uncha katta bo'limgan farq ya'ni 0,1 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu qiymat davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha savdolarni jadal o'sishi natijasida 93,02 trln. so'mni tashkil etgan. Shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozoridagi savdolar qiymati yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2018-yilda 0,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 11,6 foizlik qiymatga ega bo'lgan.

So'nggi yillarda moliyaviy texnologiyalarni rivojlanishi fond bozori infratuzilmasiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatib, undagi savdo jaryonlarini tezligini va investorlar uchun qulaylilik darajasini oshirdi.



2-rasm: "Toshkent" RFBda qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitimlar soni<sup>17</sup>

2-rasm ma'lumotlarida 2018–2022-yillarda "Toshkent" RFBda aksiya va obligatsiya savdolai bo'yicha bitimlar soni tahlil etilgan. 2018-yilda "Toshkent" RFBda bitimlar soni 13750 donani yoki oldingi yilga nisbatan 534,6 foizlik o'sishga erishilgan bo'lsa, 2022-yilda 113 foiz hamda So'nggi 5-yil davomida qariyb 6 barobarga oshgan.



3-rasm: "Toshkent" RFBda 2022-yilning 12 oyi uchun tuzilgan bitimlar soni va hajmi (mlrd so'm)<sup>18</sup>


17 <https://uzse.uz/analytics> va <https://uzrvb.uz/uzl/ozrvbning--2021-yildagi-yillik-hisoboti> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

18 <https://uzse.uz/analytics> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi




3-rasm ma'lumotlarida "Toshkent" RFBda 2022-yilning 12 oyi uchun tuzilgan bitimlar soni va hajmi ko'rsatilgan bo'lib,-yanvar oyida 7599 dona qiymati 3,036 trln. so'mlik bitimlarni qayd etishimiz joiz. Shuningdek, oylik bir bitim qiymati o'rtacha 0,051 mlrd so'mni tashkil etishini kuzatishimiz mumkin.

Respublikamiz fond bozoriga xorijiy investorlarning to'g'ridan to'g'ri va portfel investitsiyalar hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Xususan, quyida milliy fond bozorimizning aksiya va obligatsiyalar segmentiga xorijiy investorlarning investitsiyalar hajmi ko'rsatib o'tilgan (4-rasm).



**4-rasm:** O'zbekiston Respublikasida fond bozoridagi kompaniya aksiyalarga xorijiy investorlarning investitsiyalari, trln. so'm<sup>19</sup>

4-rasm ma'lumotlarida 1-avgust 2023-yil holatiga respublikamiz fond bozoriga xorijiy investorlarning tog'ridan to'g'ri investitsiyalari ya'nı aksiyadorlik jamiyatları aksiyalariga yo'naltirilgan mablag'lar qiymatini ko'rsak bo'ladi. Fond bozorining aksiyalar savdosi segmentida xorijiy investorlarning ulushi 4,12 foizni tashkil etadi. Shuningdek, 2023-yilda Vengriyaning "OTB bank" tomonidan O'zbekiston Respublikasidagi "Ipoteka-bank" ATB sotib olinishi fond bozoridagi yirik bitimlardan biri bo'ldi.




**5-rasm:** O'zbekiston Respublikasida fond bozoridagi kompaniya obligatsiyalarga xorijiy investorlarning investitsiyalari, trln. so'm<sup>20</sup>

5-rasm ma'lumotlarida xorijiy investorlarning obligatsiyalar bozoriga kiritgan investitsiyalari tahlil etilgan bo'lib, ushbu bozorda ularning ulushi 1-avgust 2023-yil holatiga 3,13 foizni tashkil etgan. Obligatsiyalar bozori bo'yicha eng yuqori qiymatlari portfel ya'nı 92,59 foizlik ulush Qozog'istonlik investorlarga tegishli bo'lgan.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga keng jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususiy investitsiyalar bo'yicha AQSH va Yaponiya davlatlarini yuqori o'rinnarda turadi (6-rasm).

<sup>19</sup> [https://deponet.uz/sites/default/files//oy\\_xorijiy\\_01.08.2023\\_uz.pdf](https://deponet.uz/sites/default/files//oy_xorijiy_01.08.2023_uz.pdf) ma'lumotlari asosida muallif ishlansasi

<sup>20</sup> [https://deponet.uz/sites/default/files//oy\\_xorijiy\\_01.08.2023\\_uz.pdf](https://deponet.uz/sites/default/files//oy_xorijiy_01.08.2023_uz.pdf) ma'lumotlari asosida muallif ishlansasi



6-rasm: 1998–2020-yillarda xususiy investorlarning (aholi) fond bozoridagi ishtiroki, foizlarda<sup>21</sup>

6-rasm ma'lumotlarida AQSH, Yaponiya va Rossiya Federatsiyasida aholining fond bozoridagi ulushi keltirilgan bo'lib, eng yuqori qiymat AQSHda qayd etilgan. Lekin, dunyo bo'yicha yirik investitsion resurs va salohiyatga ega bo'lgan ushbu davlatlarning milliy fond bozoridagi investitsiyalari qiymati yetarli darajada emasligi, sohada keng ko'lamli islohotlarni yanada jadallashtirish kerakligini anglatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida fond bozori keng imkoniyatlarga ega va milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etsak bo'ladi. Lekin, sohani yanada rivojlantirish va unga xorijiy investorlarni keng jalgan etish maqsadida bir qator amallarni bajarish zarur hisoblanadi:

- fond bozori va davlat qimmatli qog'ozlar bozorini uyg'unligini ta'minlash;
- fond bozorida aksiyalar savdosi bo'yicha mahalliy va xorijiy OAVlarda keng marketing tabdirlarini amalga oshirish;
- fond bozorida obligatsiyalar savdosi bo'yicha mahalliy va xorijiy OAVlarda keng marketing tabdirlarini amalga oshirish;
- fond bozori savdo infratuzilmasiga zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni olib kirish;
- aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalar qiymatini oshirish maqsadida korporativ boshqaruv tizimini samrali yo'nga qo'yish va boshqalar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNCTAD, FDI/MNE database (<https://unctad.org/fdistatistics>)
2. [https://data.worldbank.org/indicator/BX.KLT.DINV.WD.GD.ZS?name\\_desc=false](https://data.worldbank.org/indicator/BX.KLT.DINV.WD.GD.ZS?name_desc=false)
3. <https://companiesmarketcap.com/all-countries/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" Farmoni, 28. 02. 2023-yildagi PF–27-son, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02. 03. 2023-y., 06/23/27/0121-son
5. Wenhao Tan, Xiang Li, Jianfeng Zhao, Lin Cao, Haolun Wang "Internal capital markets and employee wage: Evidence from China" International Review of Financial Analysis, Volume 88, 2023, 102680, ISSN 1057–5219, <https://doi.org/10.1016/j.irfa.2023.102680>.
6. David Y. Aharon, Ahmed S. Baig, Hassan A. Butt "The role of education in capital Markets' liquidity" Journal of International Financial Markets, Institutions and Money, Volume 86, 2023, 101805, ISSN 1042–4431, <https://doi.org/10.1016/j.intfin.2023.101805>.
7. Joseba Martinez, Thomas Philippon, Markus Sihvonen, Does a currency union need a capital market union?, Journal of International Economics, Volume 139, 2022, 103675, ISSN 0022–1996, <https://doi.org/10.1016/j.jinteco.2022.103675>.
8. Karen Aparicio, Ryonhee Kim, External capital market frictions, corporate governance, and tax avoidance: Evidence from the TED spread, Finance Research Letters, Volume 52, 2023, 103381, ISSN 1544–6123, <https://doi.org/10.1016/j.frl.2022.103381>.

21 Karimov A. I. The Experience of Involving the Population's Free Money in the Development of the Securities Market //International Finance and Accounting. – 2020. – T. 2020. – № 6. – S. 18.



9. Luiz Ricardo Kabbach-de-Castro, Guilherme Kirch, Rafael Matta, Do internal capital markets in business groups mitigate firms' financial constraints?, Journal of Banking & Finance, Volume 143, 2022, 106573, ISSN 0378–4266, <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2022.106573>.
10. Elmirzayev S., Omonov S. Dividend policy analysis in developed countries and dividend aristocrats //International Finance and Accounting. – 2020. – Т. 2020. – №. 2. – С. 22.
11. Sherkuziyeva N. Dividendnaya politika: vliyanie dividendnykh vyplat na kurs aksiy i na rynochnuyu stoimost akcionernykh obshestv //Economics and education. – 2022. – Т. 23. – №. 1. – С. 162–167.
12. Muxamedov F. Qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarining rivojlanish tendensiyalari tahlili va muammolari //Ekonomika i innovatsionnye texnologii. – 2020. – №. 1 (2). – С. 14–24.
13. Buvsara T. Financial Management Features In Emerging Economies (In Case Of Uzbekistan) //Voice of Research. – 2014.
14. O. N. Hamdamov Prospects for increasing the importance of financial management in ensuring the financial stability of stock companies //Ekonomika i finansy (Uzbekistan). – 2021. – №. 6. – С. 29–35.
15. Karimov A. Traditions and prospect of development of the securities market activity //International Finance and Accounting. – 2019. – Т. 2019. – №. 4. – С. 1.
16. <https://uzse.uz/analytics> va <https://uzrvb.uz/uzl/ozrvbning-2021-yildagi-yillik-hisoboti> ma'lumotlari asosida muallif ishlansasi
17. [https://deponet.uz/sites/default/files//oy\\_xorijiy\\_01.08.2023\\_uz.pdf](https://deponet.uz/sites/default/files//oy_xorijiy_01.08.2023_uz.pdf) ma'lumotlari asosida muallif ishlansasi
18. Karimov A. I. The Experience Of Involving The Population's Free Money In The Development Of The Securities Market //International Finance and Accounting. – 2020. – Т. 2020. – №. 6. – С. 18.



**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

